

6. Tymoczko, M. (2007). *Enlarging Translation, Empowering Translators*. St. Jerome Publishing.
7. Berman, A. (2000). "Translation and the Trials of the Foreign." In *The Translation Studies Reader*, edited by L. Venuti, Routledge.
8. Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation* (2nd ed.). Routledge.
9. Munday, J. (2016). *Introducing Translation Studies: Theories and Applications* (4th ed.). Routledge.
10. Liu, L. (1995). *Translingual Practice: Literature, National Culture, and Translated Modernity*. Stanford University Press.

Axmadjonov Nurbek Zokirjon o'g'li, Farg'ona davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrası dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
akhmadjonovnurbek@gmail.com <https://orcid.org/0009-0009-3271-0852>



EKSPRESSIV NUTQIY AKTLAR VA ULARNING TADQIQI

<https://zenodo.org/records/18729174>

Annotatsiya. Mazkur maqola inson nutqiy faoliyatining tuzilishi va funksiyalarini, xususan ekspressiv nutqiy aktlarni o'rganishga bag'ishlangan. Inson nutqiy faoliyati turli shakl, hajm va tuzilishga ega axborotlar majmuasidan iborat bo'lib, u illokutiv komponentlar va nutqiy motivlar bilan chambarchas bog'liqdir. Nutqiy aktlarning farqlanishi umumiy tuzilish va funksiyalarni aniqlashga xizmat qiladi, ekspressiv nutqiy aktlar esa so'zlovchining ichki holati, his-tuyg'ulari va fikrlarini ifodalashga yo'naltirilgan nutqiy harakatlar sifatida tilshunoslikda alohida e'tiborga ega. Mazkur maqolada ekspressiv nutqiy aktlarning lingvistik xususiyatlari, ularning til vositalari orqali ifodalanishi va shaxslararo muloqotdagi ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, ekspressiv, maqtov, tabrik, tanqid, taxdid

EXPRESSIVE SPEECH ACTS AND THEIR STUDY

Abstract. This article is devoted to the study of the structure and functions of human speech activity, particularly expressive speech acts. Human speech activity consists of a complex set of information of various forms, sizes, and structures, and it is closely connected with illocutionary components and speech motives. The differentiation of speech acts serves to identify their general structure and functions, while expressive speech acts receive special attention in linguistics as speech actions aimed at expressing the speaker's internal state, emotions, and thoughts. This article

analyzes the linguistic features of expressive speech acts, their expression through language means, and their social significance in interpersonal communication.

Keywords: speech act, expressive, praise, congratulation, criticism, threat

ЭКСПРЕССИВНЫЕ РЕЧЕВЫЕ АКТЫ И ИХ ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению структуры и функций речевой деятельности человека, в частности экспрессивных речевых актов. Речевая деятельность человека представляет собой совокупность информации различных форм, объёма и структуры и тесно связана с иллюквативными компонентами и речевыми мотивами. Разграничение речевых актов способствует выявлению их общей структуры и функций, при этом экспрессивные речевые акты занимают особое место в лингвистике как речевые действия, направленные на выражение внутреннего состояния, чувств и мыслей говорящего. В статье анализируются лингвистические особенности экспрессивных речевых актов, способы их выражения языковыми средствами и их социальная значимость в межличностной коммуникации.

Ключевые слова: речевой акт, экспрессив, похвала, поздравление, критика, угроза

Kirish. Ekspressiv nutqiy harakatlarning alohida sinf sifatida mavjudligi ilk bor nutqiy aktlar nazariyasining eng mukammal va tizimli tasniflarida — John Searle hamda John Austin tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalarda o'z ifodasini topgan. J. Austin nutqiy aktlarni tasniflashda performativ fe'l-kesimning semantik xususiyatlariga tayanadi va nutqiy harakat turini aynan performativ birlikning ma'nosi orqali belgilaydi. Uning klassifikatsiyasida ekspressiv bayonotlar mustaqil va alohida sinf sifatida ajratilmagan. Biroq ekspressiv xarakterga ega bo'lgan ayrim nutqiy akt turlari boshqa sinflar tarkibida keltiriladi. Xususan, komissivlar (majburiyat, va'da, tahdid mazmunini ifodalovchi aktlar) hamda bexabitivlar (ijtimoiy xulq-atvor, munosabat va etik normalarni ifodalovchi fe'llar — tabriklash, uzr so'rash, minnatdorchilik bildirish va boshqalar) tarkibida ekspressiv elementlar mavjud. Shuningdek, J. Austin boshqalarning o'tmishdagi yoki kelajakdagi harakatlariga, kelishuvlariga, xatti-harakatlariga munosabat bildirishni ham bexabitivlar doirasiga kiritadi. Bu esa mazkur guruhning sezilarli darajada ekspressiv-pragmatik xususiyat kasb etishini ko'rsatadi. Demak, Austin tasnifida ekspressivlik alohida nazariy kategoriya sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, u nutqiy aktlarning ayrim turlari tarkibida implisit ravishda namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. J. Searle tomonidan taklif etilgan va keyinchalik muallifning o'z tadqiqotlarida yanada takomillashtirilgan tasnif esa lingvistik pragmatika sohasida keng qo'llanila boshladi hamda ilmiy muomalada mustahkam o'rin egalladi. Aynan shu tasnif doirasida "ekspressivlar" atamasi alohida nutqiy aktlar sinfi sifatida terminologik jihatdan mustaqillikka ega bo'ldi va zamonaviy tilshunoslik adabiyotida eng ko'p qo'llaniladigan nomlanishga aylandi.

J. Searle ta'kidlashicha, ekspressivlar — ehtimol, shunday yagona nutqiy aktlar sinfiki, ular uchun so'z va real voqelik o'rtasidagi muvofiqlik (ya'ni "so'z–dunyo" yoki "dunyo–so'z" yo'nalishidagi moslik) hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Chunki ekspressiv nutqiy aktlarning asosiy vazifasi voqelikni tasvirlash, axborot yetkazish yoki tashqi dunyoni o'zgartirish emas, balki so'zlovchining ichki psixologik holatini, hissiy-

kechinmalarini, bahosini va subyektiv munosabatini ifodalashdan iboratdir. Shu bois soʻzlovchi ekspressiv nutqiy harakatni amalga oshirar ekan, u dunyoni soʻzlarga yoki soʻzlarni real voqelikka “moslashtirish”ni maqsad qilmaydi. Masalan, biror shaxs birovning oyogʻini bosib yuborgani uchun uzr soʻraganda, uning maqsadi “oyoq bosilganligi” faktini eʼlon qilish yoki tasdiqlash emas. Aksincha, u mazkur vaziyatga nisbatan oʻzining pushaymonlik, afsuslanish yoki noqulaylik hissini ifodalaydi. Demak, bunday nutqiy aktning pragmatik markazida voqelikning tasviri emas, balki soʻzlovchining subyektiv-emotsional munosabati turadi [3, s. 170–194]. Shunday qilib, ekspressiv nutqiy aktlar nazariy jihatdan mustaqil sinf sifatida, avvalo, Searle konsepsiyasida aniq shakllantirilgan boʻlsa-da, ularning dastlabki elementlari Austin tasnifida ham uchraydi. Bu esa ekspressivlik kategoriyasining nutqiy aktlar nazariyasida evolyutsion tarzda shakllanganini koʻrsatadi.

Nutqiy aktlar tasnifining muhim va prinsipial xususiyatlaridan biri — illokutiv sinfni soʻzlovchining psixologik holati bilan, illokutiv predikatni esa propozitsional munosabatni ifodalovchi predikati bilan qiyoslash tamoyilidir. Bunday yondashuv nazariy jihatdan asosli va mantiqiydir. Zero, “maʼlum bir illokutiv aktning normal amalga oshirilishi uchun soʻzlovchi tegishli psixologik holatda boʻlishi lozim: biror narsani tasdiqlash uchun soʻzlovchi oʻzi tasdiqlayotgan narsaning haqiqat ekanligiga ishonishi kerak; agar soʻzlovchi adresatni biror ishni bajarishga undasa, u buni chin dildan istashi lozim” [4, s. 27–37].

Mazkur fikr illokutiv aktning muvaffaqiyati (felicity conditions) nafaqat formal-lisoniy omillarga, balki soʻzlovchining ichki intensionallik holatlariga ham bevosita bogʻliqligini koʻrsatadi. Demak, nutqiy harakatning pragmatik qiymati va kommunikativ samaradorligi soʻzlovchining subyektiv-psixologik pozitsiyasi bilan uzviy aloqada namoyon boʻladi.

Nutqning ekspressivligi tushunchasi va uning namoyon boʻlish shakllari zamonaviy lingvistikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki ekspressivlik hodisasi soʻzlovchining adresatga hamda nutq mazmuniga nisbatan emotsional, baholovchi va aksiyologik munosabati bilan chambarchas bogʻliqdir. Kommunikantlarning psixologik holatini ifodalovchi ekspressiv nutqiy aktlar shaxslararo muloqot jarayonida alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi: ular ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, kommunikativ muvozanatni taʼminlaydi, nutqiy etikani shakllantiradi va intersubyektiv hamkorlikni mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, mazkur yoʻnalish lingvistlar diqqat markazida boʻlib kelayotganiga qaramay, ekspressiv nutqiy aktlarda mujassamlashgan soʻzlovchi subyektning intensionalliklari, kommunikantlar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir mexanizmlari, shuningdek, til shaxsining psixolingvistik xususiyatlariga oid hali toʻliq yoritilmagan va aniqlashtirilishi zarur boʻlgan koʻplab nazariy boʻshliqlar mavjud. Ayniqsa, ekspressivlikning kognitiv asoslari, uning diskursiv realizatsiyasi hamda milliy-madaniy xususiyatlari kompleks tadqiqotni talab etadi. Shu bois ilgari maʼlum boʻlgan va bir necha bor muhokama qilingan nutqiy materialni mazkur konseptual yoʻnalishda qayta talqin etish umumlingvistik nuqtai nazardan muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bunday qayta tahlil ekspressiv nutqiy aktlarning lingvistik va pragmatik tabiatini yanada aniqlashtirish, ularning struktur-semantik va funksional parametrlarini tizimlashtirish hamda nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Ekspressiv bayonotlar, odatda, soʻzlovchi tomonidan bir vaqtning oʻzida bir nechta intensionallikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu jihatdan ekspressivlar murakkab intensionallik majmuasini roʻyobga chiqaradi. Mazkur majmua soʻzlovchi

ongidagi turli psixik holatlar — ishonch, afsus, quvonch, minnatdorlik, norozilik, hayrat, baholash va boshqalar haqidagi axborotni o'z ichiga oladi. Bu intensionallik holatlari til strukturasi orqali bevosita yoki bilvosita, eksplisit yoki implisit tarzda kodlanadi. Natijada ekspressiv nutqiy aktlar nafaqat emotsional ifoda vositasi, balki ko'p qatlamli pragmatik-kognitiv hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ular kommunikativ jarayonda so'zlovchining ichki dunyosi bilan tashqi ijtimoiy voqelik o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatni aks ettiradi.

Ekspressiv nutqiy aktlarni umumiy kategoriya sifatida yoki ularning ayrim turlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar soni nisbatan kamdir. E. Rolf [5, s. 257] mazkur tadqiqot yo'nalishini **ilmiy jihatdan hali yetarli darajada o'zlashtirilmagan va tizimli o'rganilmagan soha** sifatida baholaydi. Ya'ni, ushbu yo'nalishda ayrim izlanishlar mavjud bo'lishiga qaramay, ularning nazariy umumlashtirilishi va konseptual tizimlashtirilishi yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ularning aksariyati ingliz tili materiali asosida bajarilgan bo'lib, asosan ikki nazariy yo'nalish doirasida amalga oshirilgan: birinchisi — nutqiy janrlar nazariyasi kontekstida, ikkinchisi esa — bevosita nutqiy aktlar nazariyasi doirasida. Ikkinchi yo'nalishda tadqiqotchilar nutqiy vositalardan qat'i nazar nutqiy aktlarni tahlil qilish, ularni tasniflash hamda o'zaro bog'liqlik va funksional munosabatlarini aniqlashga e'tibor qaratganlar.

Ekspressiv nutqiy aktlar bo'yicha dastlabki yirik tadqiqotlardan biri sifatida nemis tadqiqotchisi S. Marten-Kliffning monografiyasini qayd etish lozim [6, s. 371]. Mazkur asarda ekspressivlar, asosan, his-tuyg'ularning samimiy ifodasi sifatida talqin etiladi. Biroq ushbu monografiyaning ilmiy qimmati nisbatan cheklangan deb baholanadi, chunki unda yetarli darajada chuqur lingvistik tahlil amalga oshirilmagan hamda muallifning asosiy xulosalari aniq va keng qamrovli til materialiga tayangan holda izchil asoslab berilmagan. Shunga qaramay, mazkur ish ekspressiv nutqiy aktlar sinfini umumlashtirilgan tarzda tavsiflashga qaratilgan dastlabki urinishlardan biri sifatida alohida e'tiborga loyiqdir.

Yuqorida qayd etilgan nashrdan konseptual va metodologik jihatdan sezilarli darajada farq qiluvchi tadqiqot — polyak tilshunosi L. Pisarekning monografiyasidir [7, s. 173]. Unda polyak va rus tillari materiali asosida ekspressiv nutqiy aktlarning tipologik tahlili amalga oshirilgan. Muallif keng qamrovli til misollariga tayanadi hamda qiyosiy-tasnifiy yondashuvni qo'llaydi. Biroq tadqiqot etikett xarakteridagi ekspressivlar guruhi bilan cheklanadi, natijada baholovchi nutqiy aktlar (masalan, maqto'v, qoralash va shunga o'xshash aktlar) mazkur sinf doirasidan tashqarida qoldiriladi. Bu esa ekspressiv nutqiy aktlarning funksional-semantik imkoniyatlarini to'liq qamrab olishga ma'lum darajada to'sqinlik qiladi.

Ekspressiv nutqiy aktlarning umumiy xususiyatlari qator maqolalar va yirik tadqiqotlarda Formanovskaya N.I., E.M. Volf hamda Shilenko R.V. tomonidan atroflicha ko'rib chiqilgan. Mazkur olimlar ekspressiv birliklarning semantik-pragmatik tabiatini, ularning baholovchi va emotsional komponentlarini, shuningdek, nutqiy etiket tizimidagi funksional o'rnini aniqlashga intilganlar. Ularning ishlarida ekspressiv nutqiy aktlarning kommunikativ vazifalari, adresant va adresat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi roli, hamda til vositalari orqali subyektiv munosabatning ifodalanish mexanizmlari izchil tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar uchun metodologik va empirik jihatdan muhim bo'lgan ishlarning sezilarli qismi ekspressivlar sinfining alohida vakillarini o'rganishga bag'ishlangan. Bunday yondashuv, bir tomondan, muayyan ekspressiv turining lingvistik xususiyatlarini chuqur ochib berishga imkon bersa,

ikkinchi tomondan, butun sinf doirasida umumlashtiruvchi nazariy xulosalar chiqarishni ma'lum darajada cheklab qo'yadi.

Rus tili materiali asosida invektivani (haqorat va so'kish nutqi) tadqiq etishga qaratilgan eng fundamental ishlardan biri V.I. Zhelvisning monografiyasidir. Ushbu tadqiqot bir necha o'nlab tillardan keltirilgan boy va xilma-xil faktik material bilan mustahkamlangan bo'lib, invektiv birliklarning semantik, pragmatik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy nuqtai nazardan yoritadi. Muallif invektiv muloqotni nafaqat til hodisasi, balki ijtimoiy-psixologik va madaniy fenomen sifatida ham talqin qiladi.

Invektiv (salbiy baholashni ifodalovchi nutqiy harakatlar) muloqotning leksik xususiyatlari Xavrilin O. (2003), Pozolotin A.V. (2005), Korolyova O.P. (2002), Sarjina O.V. (2005) kabi olimlarning tadqiqotlarida batafsil tahlil qilingan. Mazkur ishlarda haqorat va so'kish birliklarining semantik tuzilishi, stilistik bo'yoqdorligi, konnotativ qatlamlari hamda kommunikativ vaziyatga bog'liq holda funksionallashuvi o'rganiladi. Shuningdek, invektiv birliklarning sotsial marker sifatidagi roli, ularning gender, yosh va ijtimoiy maqom omillari bilan bog'liqligi ham e'tibordan chetda qolmaydi.

Ekspressiv leksikaning funksionallashuvi bilan bog'liq ayrim nazariy va amaliy jihatlar esa Belchikov Yu.A. (2002), Burgen S. (1998), Faust M. (1965), Graber G.N. (1991), Markefka M. (1999), Schumann H.B. (1990), Sornig K. (1975) kabi mualliflarning maqolalarida o'z ifodasini topgan. Ushbu tadqiqotlarda ekspressiv leksikaning stilistik differensiasiyasi, diskursiv muhitdagi o'zgaruvchanligi hamda kommunikativ strategiyalar bilan o'zaro aloqasi masalalari yoritiladi.

Kusov G.V. (2003) ning dissertatsiyasida esa institutsional diskurs doirasida "haqorat" konsepti maxsus tadqiq etiladi. Muallif mazkur konseptning ijtimoiy-institutsional shartlanganligini, uning normativ va sanksiyalovchi mexanizmlar bilan bog'liqligini, shuningdek, rasmiy va norasmiy diskurs turlarida turlicha realizatsiya qilinishini asoslab beradi. So'kinish va vulgarizmlar lug'atlari ham ekspressiv nutqni o'rganishda muhim empirik manba hisoblanadi. Bunday lug'atlar nafaqat leksik birliklarni jamlash va tasniflash, balki ularning semantik, stilistik hamda madaniy konnotatsiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Natija va muhokama.

Nemis tili materiali asosida yaratilgan eng mashhur lug'atlardan biri - R. Aman tomonidan tuzilgan va 1972- yilda nashr etilgan lug'atdir. Mazkur lug'atda nemis tilidagi invektiv va vulgar birliklar tizimlashtirilgan bo'lib, u tadqiqotchilar uchun muhim leksikografik manba vazifasini bajaradi. Kompliment esa muloyimlik (politeness) nazariyasi doirasida alohida o'rin egallaydi va lingvistik izlanishlarning nisbatan keng o'rganilgan obyektlaridan biri hisoblanadi. Komplimentlarni o'rganishda amerikalik lingvistlar salmoqli hissa qo'shganlar. Xususan, N. Wolfson va J. Manesning ko'plab tadqiqotlari (masalan, [8, s. 391–410]) hamda J. Holmesning ishlari [9, s. 458–508] jahon tilshunoslari tomonidan tez-tez iqtibos qilinadi. Mazkur tadqiqotlarda komplimentlarning strukturaviy modellari, ularning ijtimoiy parametrlar (yosh, jins, maqom, ijtimoiy masofa) bilan bog'liqligi, shuningdek, kommunikativ strategiya va taktika sifatidagi funksional imkoniyatlari keng qamrovda tahlil etilgan.

Kompliment fenomeni tilshunoslikda ko'p qirrali va murakkab nutqiy hodisa sifatida turli nazariy yo'nalishlar doirasida tadqiq etilgan. Ushbu masalaga rus tilshunosligida Formanovskaya N.I., Fedosyuk M.Yu., Dyachkova I.G., Shmeleva T.V., Karasik V.I., Pankratov I.V., Paducheva E.V., Talberg Yu.G., Tripolskaya T.A. va boshqa olimlar turli jihatlardan murojaat qilganlar. Mazkur tadqiqotlarda

komplimentning semantik tuzilishi, uning baholovchi va emotsional komponentlari, nutqiy etiket tizimidagi o'rni, kommunikativ strategiya va taktika sifatidagi funksional imkoniyatlari izchil tahlil etilgan. Shuningdek, komplimentning adresant va adresat o'rtasidagi ijtimoiy masofa, maqom, yosh va jins kabi omillar bilan bog'liqligi ham ilmiy izlanishlar markazida bo'lgan.

Xorijiy ilmiy an'analarda ham kompliment muammosi keng qamrovli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, Adamzik K., Allan K., Bach K., Harnish M., Clyne M., Thomas T., Burton D., Brown C., Leny F., Marten-Cleef S., Pratt M. va boshqa tadqiqotchilar komplimentni nutqiy aktlar nazariyasi, lingvopragmatika, sotsiolingvistika hamda diskurs tahlili doirasida o'rganib, uning illokutiv kuchi, strukturaviy modellari va interaksion xususiyatlarini yoritganlar. Ushbu ishlarda kompliment ko'pincha muloyimlik strategiyalarining tarkibiy elementi, ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlovchi vosita va ijobiy baholovchi ekspressiv akt sifatida talqin etiladi.

Lingvistikada komplimentning nutqiy akt sifatida barqaror ilmiy qiziqish uyg'otayotganini so'nggi yillarda himoya qilingan qator dissertatsion tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, ingliz tili materiali asosidagi madaniyatshunoslik yo'nalishidagi ishlar — Mishchenko V.Ya. (1998), Leonteva V.V. (1999), Bezmenova L.E. (2001) — komplimentning milliy-madaniy xususiyatlarini, uning turli lingvomadaniy makonlarda namoyon bo'lish shakllarini o'rganishga qaratilgan. Agarkova O.A. (2004) tadqiqotida komplimentning etiket jihatlarini va nutqiy xulq-atvor tizimidagi o'rni tahlil etilgan bo'lsa, Komchaeva A.V. (2003) ishida uning interaktiv xususiyatlari, ya'ni dialogik jarayonda yuzaga chiqish mexanizmlari o'rganilgan. Murashkina E.V. (2004) esa komplimentning regulativ funksiyasini, ya'ni muloqotni boshqarish va ijtimoiy muvozanatni saqlashdagi rolini ko'rib chiqqan.

Xorijiy tadqiqotlar orasida keng e'tirof etilgan va ko'p iqtibos qilinadigan ishlardan biri — Zillig V. (1982) ning baholovchi nutqiy aktlarga bag'ishlangan monografiyasidir. Mazkur asarda baholash kategoriyasining nazariy asoslari ishlab chiqilgan, biroq maqto'v masalasiga nisbatan juda kam o'rin ajratilib, u asosan institutsional pedagogik diskurs doirasida talqin etilgan. Natijada maqto'vning umumiy pragmatik, sotsial va diskursiv xususiyatlari yetarli darajada yoritilmagan. Yosh rus olimlari tadqiqotlarida maqto'v ko'pincha qoralash nutqiy aktining baholovchi shkaladagi aksi sifatida talqin qilinadi (Dyachkova I.G. (1998), Noskova S.E. (2004) maqolalari, Bessonova I.V. (2003) dissertatsiyasi). Bunday yondashuv baholovchi nutqiy aktlarni bipolar oppozitsiya tamoyili asosida ko'rib chiqadi. Ammo ma'lum tadqiqotlar orasida mazkur aktlar o'zaro funksional-semantik jihatdan yaqin, biroq mustaqil pragmatik birliklar sifatida kompleks va qiyosiy tarzda tahlil qilingan alohida ilmiy ish kuzatilmaydi.

Ba'zi ishlarda esa maqto'v boshqa ijobiy baholovchi nutqiy aktlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Jumladan, Tripolskaya T.A. (1999) monografiyasida maqto'v kompliment bilan qiyoslanadi, Leonteva V.V. (1999) dissertatsiyasida esa xushomad va kompliment bilan taqqoslanadi. Ushbu yondashuvlar maqto'vning differensial belgilari va chegaralarini aniqlashtirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, uni mustaqil baholovchi-ekspressiv akt sifatida yaxlit nazariy model asosida tavsiflash vazifasi hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda. Aslida maqto'v baholovchi ekspressiv aktlar sinfining "o'z-o'ziga yetarli" vakili sifatida qaralishi lozim. U o'ziga xos semantik tuzilishga, aniq illokutiv maqsadga, ijtimoiy-regulativ funksiyaga hamda diskursiv realizatsiya mexanizmlariga

ega. Mazkur xususiyatlar maqto'vni alohida va mustaqil ilmiy tahlil obyekti sifatida o'rganishni to'liq asoslaydi.

Xulosa.

Ekspressiv nutqiy aktlar insonning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va subyektiv munosabatini ifodalovchi muhim nutqiy birliklardir. Ular nutqiy faoliyat tizimida alohida o'rin tutib, shaxslararo muloqotning samaradorligini ta'minlaydi. Ekspressiv aktlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish nutqning illokutiv tabiati, kommunikativ maqsadi va ijtimoiy ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Остин Дж.Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 17. – М., 1986. – С. 22-29.
2. Серль Дж., Вандервекен Д. Основные понятия исчисления речевых актов // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 18. – М., 1986. – С. 151-169.
3. Серль Дж. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 17. – М., 1986. – С. 170-194.
4. Богданов В.В. Классификация речевых актов // Личностные аспекты языкового общения. – Калинин, 1989. – С. 27-37.
5. Rolf E. Illokutive Krafte. – Opladen: Westdeutscher Verlag, 1997. – 257 S.
6. Marten-Cleef S. Gefuhle ausdrucken. Die expressiven Redeakte. – Goppingen: Kummerle Verlag, 1991. – 371 S.
7. Писарек Л. Речевые действия и их реализация в русском языке в сопоставлении с польским. – Вроцлав, 1985. – 173 с.
8. Wolfson N., Manes J. The compliment as a social strategy // Papers in Linguistics. – 1980. – № 13. P. 391-410.
9. Holmes J. Compliments and Compliment Responses in New Zealand English // Anthropological Linguistics. – 1987. – № 28. P. 458-508.
10. Графова Т.А. Смысловая структура эмотивных предикатов // Человеческий фактор в языке. Языковые механизмы экспрессивности. – М.: Наука, 1999. – С. 67-99.
11. Бессонова И.В. Речевые акты похвалы и порицания собеседника в диалогическом дискурсе современного немецкого языка. – Автореф. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – Тамбов, 2003. – 23 с.
12. Формановская Н.И. Обращение с точки зрения коммуникативнопрагматического подхода // Речевое общение. – Вып 3. – М., 2000. – С. 83-88.
13. Rehbein J. Entschuldigungen und Rechtfertigungen. Zur Sequenzierung von kommunikativen Handlungen // Wunderlich D. (Hg.): Linguistische Pragmatik. – Frankfurt M., 1972. – S. 288-317.
14. Fraser B. Hedged Performatives // Syntax Semantics. – Vol.3: Speech Acts. Ed. by P. Cole and J.L. Morgan. – 1975. – P. 187-210.
15. Otterstedt C. Abschied im Alltag. Grusformen und Abschiedsgestaltung im interkulturellen Vergleich. – Munchen: Iudicum-Verlag, 1993. – 382 S.
16. Ратмайр Р. Прагматика извинения. – М.: Языки славянской культуры, 2003. – 272 с.